

30-May, 2026-yil

**NOGIRON BOLALAR: INKLYUZIV TA’LIM VA IJTIMOY  
INTEGRATSIYA**

**Suyarov Ozodbek**

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Jinoyat-odil sudlov fakulteti talabasi*

[Ozodbeksuyarov652@gmail.com](mailto:Ozodbeksuyarov652@gmail.com)

**KIRISH**

Bugungi kunda nogiron bolalarning **inklyuziv ta’lim va ijtimoiy integratsiyasi** masalasi inson huquqlari sohasida global miqyosda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Nogironlikka ega bo’lgan bolalarning teng huquqlardan foydalanishi, ta’lim olishi va jamiyatda faol ishtirok etishi nafaqat xalqaro huquqiy normalar, balki axloqiy va ijtimoiy mas’uliyat nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Bizning mamlakatimiz bo’lmish O’zbekiston Respublikasida ham ushbu sohada sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda, ammo **infratuzilma, moliyaviy resurslar va ijtimoiy stereotiplar** kabi muammolar hali ham mavjud. Ushbu **ishning maqsadi** nogiron bolalarning inklyuziv ta’lim va ijtimoiy integratsiyasi sohasidagi xalqaro va milliy tajribani tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo’llarini taklif etishdir. Tadqiqotda xalqaro huquqiy hujjatlar, O’zbekiston qonunchiligi va sud amaliyoti tahlil qilinadi. Asosiy munozaralar sifatida nogiron bolalarning ta’lim olish huquqining ta’minlanishi, inklyuziv ta’limning samaradorligi va ijtimoiy integratsiyaga yo’naltirilgan davlat siyosatining o’ziga xos xususiyatlarini muhokama qilamiz. Shundan kelib chiqqan holda, dastavval, tadqiqotimiz orqali o’rganishimiz lozim bo’lgan eng asosiy savollarni aniqlab olamiz:

- 1) Inklyuziv ta’limning amaliy joriy etilishidagi to’siqlar qanday?
- 2) Xalqaro tajriba O’zbekiston sharoitlariga qay darajada moslashadi?
- 3) Jamiyatda nogironlikka nisbatan stereotiplarni yo’qotish uchun qanday choralar ko’rilishi kerak?

Materiallar va metodlar:

Ushbu tadqiqot **ilmiy maqolalar, xalqaro yuridik adabiyotlar, xalqaro huquqning umume’tirof etigan normalarni tahlil qilgan holda** va ko’pgina xalqaro tashkilotlarning rasmiy internet saytidagi rasmiy ma’lumotlarga tayangan holda va ularni tahlil qilgan holda olib borildi. Biz yana shuni qo’shimcha tarzda keltirib o’tishimiz mumkinki, ushbu tadqiqotni amalga oshirishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining bir nechta rezolutsiyalaridan ham foydalanildi.

Muhokama:

Umuman olganda, hammamizga ma’lumki inson huquqlari bo’yicha **ta’lim standartlari** ko’plab xalqaro hujjatlarga kiritilgan. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasida ham inson huquqlari sohasidagi ta’lim huquqiy fuqarolik jamiyatini tashkil

# “ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-May, 2026-yil

etishning siyosiy jihatdan muhim mexanizmi hisoblanadi. Inson huquqlari sohasidagi ta’lim bo’yicha dolzarb masalalarni har tomonlama o’rganish, ilg’or xorijiy tajribani tahlil qilish hamda keng jamoatchilik muhokamasi, xalqaro va milliy maslahatlashuvlar natijasida ishlab chiqilgan O’zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturi **O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi PQ-46-son qarori** bilan tasdiqlangani O’zbekistonda inson huquqlari bo’yicha ta’limni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo’ldi.

Ana endi bevosita mavzumiz doirasidagi **ilmiy-nazariy yondashuvlarga** to’xtalib o’tsak. Inklyuziv ta’lim va ijtimoiy integratsiya masalasi turli nazariy yondashuvlar doirasida o’rganiladi. Asosiy akademik munozaralar ikkita asosiy yo’nalishda olib boriladi: **ijtimoiy model va tibbiy model**. Ijtimoiy modelga ko’ra, nogironlik shaxsning jismoniy yoki aqliy cheklolaridan kelib chiqmaydi, balki jamiyatning bu cheklolarga moslashmagan infratuzilmasi va munosabatidan kelib chiqadi (Barnes & Mercer, 2010).<sup>12</sup> Tibbiy model esa nogironlikni shaxsning ichki holati sifatida qaraydi va uni “tuzatish”ga e’tibor qaratadi. Ushbu ikki yondashuv o’rtasidagi kelishmovchilik inklyuziv ta’limning falsafasida ham o’z aksini topadi: ijtimoiy model ta’lim muhitini nogiron bolalarga moslashtirishni talab qilsa, tibbiy model maxsus ta’lim muassasalariga ustunlik beradi. Bundan tashqari, inklyuziv ta’limning samaradorligi bo’yicha **olimlar o’rtasida ham qarama-qarshi fikrlar** mavjud. Masalan, **Mitchell (2014)** inklyuziv ta’limning barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishini ta’kidlasa,<sup>13</sup> **Warnock (2005)** ayrim hollarda maxsus ta’lim muassasalari nogiron bolalarga ko’proq foyda keltirishi mumkinligini aytadi.<sup>14</sup> Ushbu munozaralar O’zbekiston kabi resurslari cheklangan mamlakatlarda yanada murakkablashadi, **chunki infratuzilma va malakali kadrlar yetishmasligi** inklyuziv ta’limning joriy etilishini qiyinlashtiradi.

Qo’shimcha tarzda, yana bir maqola **“Inklyuziv ta’lim tamoyillari, jamiyat taraqqiyotida tutgan o’rni va ro’li” to’g’risidagi maqolani** ham keltirib o’tishimiz mumkin. Ushbu maqolada inklyuziv ta’limga oid **O’zbekistondagi holat** haqida fikr yuritilgan. Maqolada O’zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Xususan, 2020-2025- yillarga mo’ljallangan **“Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” (Prezident qarori, 13.10.2020, PQ-4860) asosida** qabul qilingan choralar ta’kidlanadi. Biroq, qishloq hududlarida maxsus ehtiyojli bolalarni ta’limga jalb qilishda muammolar mavjudligi, masalan, infratuzilma yetishmasligi va ota- onalarning shahardagi maxsus muassasalarga qatnashda duch keladigan qiyinchiliklari qayd etiladi. Shuningdek, muammo va takliflar sifatida inklyuziv ta’limni joriy etishda infratuzilma (**panduslar, ko’tarish qurilmalari**), malakali kadrlar yetishmasligi va moliyaviy qiyinchiliklar kabi muammolar mavjud ekanligi

<sup>12</sup> Barnes, C., & Mercer, G. (2010). Exploring Disability: A Sociological Introduction. Polity Press.

<sup>13</sup> Mitchell, D. (2014). What Really Works in Special and Inclusive Education. Routledge.

<sup>14</sup> Warnock, M. (2005). Special Educational Needs: A New Look. Continuum.

# “ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-May, 2026-yil

ta’kidlanadi.<sup>15</sup> Taklif sifatida maktablarning nogiron bolalar ehtiyojlariga mos qurilishi, maxsus pedagoglar tayyorlash tizimini rivojlantirish va qishloq hududlarida inklyuziv ta’limni kengaytirish zarurligi aytiladi. Bundan tashqari, maqola inklyuziv ta’limni nogiron bolalarni ijtimoiy integratsiyalashning asosiy vositasi sifatida ko’rib, uning jamiyat taraqqiyotidagi muhim rolini ta’kidlaydi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda olg‘a siljishlar bo‘lsa-da, infratuzilma va kadrlar tayyorlash kabi sohalarda qo‘shimcha islohotlar talab etilishini yana bir bor ta’kidlab o‘tadi.

Shuningdek, ushbu masalada **sudlov organlari amaliyoti haqida fikr yuritadigan bo‘lsak**, Nogiron bolalarning inklyuziv ta’lim va ijtimoiy integratsiyasi bilan bog‘liq sud amaliyoti O‘zbekistonda hali yetarlicha rivojlanmagan. Biroq, nogiron bolalar uchun inklyuziv ta’lim va ijtimoiy integratsiya sohasida xorijiy sud amaliyoti doirasida juda ham ko‘plab ishlar ko‘rib chiqilgan. Jumladan, muhim misollardan biri **Buyuk Britaniyada 2010-yilda qabul qilingan “Tenglik to‘g‘risida”gi qonun (Equality Act 2010)** asosida ko‘rilgan ishdir. Ushbu qonun nogironlarning ta’lim va jamiyatdagi teng huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, inklyuziv ta’limni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. **Buyuk Britaniyadagi sud amaliyotidagi “R (on the application of Tigere) v Secretary of State for Business, Innovation and Skills” (2015) ishning qisqacha mazmuni:** Beatrix Tigere ismli nogiron talaba oliy ta’lim muassasasiga kirish uchun talaba krediti olishga ariza bergan edi. Biroq, uning immigratsion maqomi tufayli kredit rad etildi. Tigere nogironligi tufayli qo‘shimcha yordamga ehtiyoj sezgan va ta’lim olish huquqini himoya qilish uchun sudga murojaat qildi. U “Tenglik to‘g‘risida”gi qonunga asoslanib, nogironlar va immigratsion maqomi cheklangan shaxslarning ta’lim sohasida kamsitilmasligi kerakligini ta’kidladi. Sud jarayonida Tigere’ning nogironligi tufayli qo‘shimcha moliyaviy yordamga ehtiyoji borligi va ta’limdan chetda qolishi uning ijtimoiy integratsiyasiga putur yetkazishi e’tiborga olindi. Oliy sud (**UK Supreme Court**) **2015-yilda Tigere foydasiga** qaror chiqardi. Sud immigratsion maqomga asoslangan kredit rad etilishi nogiron talabaning ta’lim olish huquqini cheklashi va bu orqali ijtimoiy integratsiyaga xalaqit berishini aniqladi. Qarorda **“Tenglik to‘g‘risida”gi qonunning 19-moddasi (kamsitishni taqiqlash)** va Inson huquqlari to‘g‘risidagi **Yevropa konvensiyasining 14-moddasi (diskriminatsiyani taqiqlash)** asos qilib olindi. Sud hukumatni talaba kreditlari siyosatini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi, bu esa nogiron talabalarning oliy ta’limga kirishini osonlashtirdi. Bu ishning ta’siri va ahamiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu ish nogiron bolalar va yoshlarning inklyuziv ta’lim olish huquqini himoya qilishda sudlarning faol rol o‘ynashini ko‘rsatdi. **Tigere ishi** nafaqat Buyuk Britaniyada, balki boshqa mamlakatlarda ham nogironlarning ta’lim sohasidagi teng huquqlari bo‘yicha muhokamalarga turtki bo‘ldi. Sud qarori nogiron talabalarning moliyaviy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning ijtimoiy integratsiyasini mustahkamladi. Bu holat nogironlar uchun maxsus yordam choralari ta’minlashda davlat siyosatining moslashuvchan bo‘lishi zarurligini ta’kidladi. Umuman olganda, Tigere ishi nogiron bolalar va yoshlarning inklyuziv ta’lim olish

<sup>15</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuziv-ta-lim-tamoyillari-jamiyat-taraqqiyotida-tutgan-o-rni-va-rol>

# “ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-May, 2026-yil

huquqini himoya qilishda sud amaliyotining muhim namunasidir. Bu qaror nogiron shaxslarning jamiyatga teng integratsiyalashuvi uchun ta’limdagi to‘siqlarni bartaraf etishda qonuniy choralar qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi.

Sudning alohida yondashuvi nafaqat Tigere’ning ta’lim olish imkoniyatini ta’minladi, balki kelgusida boshqa nogiron talabalarga ham yo‘l ochdi.<sup>16</sup>

Xulosa:

Yuqorida fikr yuritgan masalalar yuzasidan **umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak**, L.S.Vigotskiyning bir fikrini keltirib o‘tishni afzal bildim. **L.S.Vigotskiy** “ijtimoiy muhit - sog‘ligi, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir” - degan g‘oyani ilgari suradi. Xuddi shuningdek, u imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishini ildizi yomon o‘simlikka o‘xshatadi. «Uning ingichkagina ildizlari oziqlantiruvchi tuproqning qatlamlari va shakliga mos kelmaydi. Ular o‘z- o‘zicha tuproqning oziqa beruvchi qatlamlariga yetib borolmay, quruq va zaharli qatlamga kirib qoladi. Bunday o‘simlik muvofiq sharoitlarda gullashi mumkin edi, biroq odatdagi sharoitda taraqqiyotning cho‘qqisiga yetmasdan, bujmayib so‘lib qoldi» deydi u. Darhaqiqat, ushbu fikrni keng tarzda yoritadigan bo‘lsak, uning ma’nosi juda ahamiyatli. Ya’ni, **L.S.Vigotskiyning ta’kidlashicha**, ijtimoiy muhit nogiron bolalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. U nogiron bolalarni ildizlari zaif o‘simlikka qiyoslaydi, ularning rivojlanishi uchun mos tuproq – ya’ni qo‘llab-quvvatlovchi muhit zarur. Agar bunday sharoitlar ta’minlanmasa, ular “quruq va zaharli qatlam”da qolib, o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqara olmaydi.<sup>17</sup> **Inklyuziv ta’lim ushbu muhitni yaratishga xizmat qiladi**, nogiron bolalarga teng imkoniyatlar taqdim etib, ularning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlaydi. Inklyuziv ta’lim bolalarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan dasturlar orqali ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda o‘qituvchilar, ota-onalar va tengdoshlarning hamkorligi muhim. **Ijtimoiy integratsiya esa** nogiron bolalarni jamiyatning faol a’zosiga aylantiradi, ularda o‘ziga ishonch va mustaqillikni shakllantiradi. Vigotskiyning ta’limotiga ko‘ra, nogiron bolalar to‘g‘ri sharoitlarda “gullab-yashnashi” mumkin, lekin bu **davlat, ta’lim muassasalari va jamiyatning birgalikdagi sa’y-harakatlarini** talab qiladi. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qadamlar tashlanmoqda, ammo infratuzilma, malakali mutaxassislar va jamoatchilik ongini oshirish masalalarida hali ko‘p ish qilinishi kerak. Nogiron bolalarning jamiyatga integratsiyasi nafaqat ularning huquqlarini ta’minlaydi, balki jamiyatni yanada adolatli va xilma-xil qiladi. Vigotskiyning so‘zlariga tayansak, har bir bola o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun “oziquqlantiruvchi tuproq” – sevgi, qo‘llab-quvvatlash va teng imkoniyatlar muhiti zarur.

<sup>16</sup> <https://www.bailii.org/uk/cases/UKSC/2015/57.html>

<sup>17</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuziv-ta-lim-tamoyillari-jamiyat-taraqqiyotida-tutgan-o-rni-va-rol-i>

# “ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-May, 2026-yil

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Darslik/G.Yuldasheva, N.Gafurova.-T.:TDYU nashriyoti,2023,-400b.
2. Barnes, C., & Mercer, G. (2010). Exploring Disability: A Sociological Introduction. Polity Press.
3. Mitchell, D. (2014). What Really Works in Special and Inclusive Education. Routledge.
4. Warnock, M. (2005). Special Educational Needs: A New Look. Continuum.

## NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi PQ-46-son qarori
- 2)1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
- 3)BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi (2006)
- 4)“Xalq ta‘limi tizimida inklyuziv ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasi” (Prezident qarori, 13.10.2020, PQ-4860)
- 5)BMTning Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi (1989)
- 6)O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni (2020)
- 7)2021-yilda qabul qilingan “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi qonun
- 8)Yevropa konvensiyasining 14-moddasi (diskriminatsiyani taqiqlash) .